
IJTIMOYIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumanidan yuborilgan tanqidiy murojaat e'lon qilingan edi.

Murojaatda: - "Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidan murojaat yo'llayapmiz. Sarmozor MFY va Baland masjid MFYning chegaradosh ko'chasining 2 kilometr yo'li ochib berilsa, minnatdor bo'lar edik. Piyodalarga ham, haydovchilarga ham qulaylik bo'lar edi..." - deya xabar qilingan.

Ushbu murojaat tumandagi tegishli mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 11 dekabrda qarorida "Kollektorlarning sohilbo'yi muhofaza mintaqa maydonlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra kelgusida hududdagi zovurlarni ekskavator yordamida tozalash jarayonida kelib chiqadigan turli-xil muammolarni oldini olish maqsadida zovurni muhofaza maydonidan murojaatda so'ralgan 2 km masofadagi yo'l ochish ishlarini amalga oshirish mumkin emasligini hamda mavjud yo'ldan faqatgina zovurlarni texnikalar yordamida tozalash uchun foydalanilish mumkinligini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-09-16 17:43:49